

## **YANGI O'ZBEKISTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI FAOLIYATI QONUN HIMOYASIDA**

*Raxmatulloev Murodjon Xikmatulloevich  
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada globollashuv sharoitida milliy davlatchilikni takomillashtirishning yangi bosqichida O'zbekiston konstitutsiyaviy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari, inson huquq va erkinliklari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, inson, uning hayoti, erkinligi, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish, mustaqillik yillarida ommaviy axborot sohasini tartibga soluvchi va istiqbolini belgilab beruvchi bir qator zarur qonun hujjatlarining ahamiyati, uning demokratik yangilanishlarning ko'zgusi, fuqarolarning, keng ommaning yangicha fikrlashga undovchi eng muhim vosita ekanligi haqida so'z boradi.*

*Kalit so'zlar: ijtimoiy jamiyat, taraqqiyot, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik, huquqiy, demokratik, dunyoviy jamiyat, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar.*

## **ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СМИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ ЗАЩИЩЕНА ЗАКОНОМ**

*Аннотация: В данной статье приоритеты конституционного развития Узбекистана на новом этапе совершенствования национальной государственности в условиях глобализации, права и свободы человека, национальные и общечеловеческие ценности, человек, его жизнь, свобода, установление открытого и справедливого общества, поле средств массовой информации в годы независимости. Говорится о важности ряда необходимых нормативно-правовых и перспективоопределяющих правовых документов, являющихся зеркалом демократических реформ, важнейшим инструментом поощрения граждан и общего общественность думать по-новому.*

*Ключевые слова: социальное общество, развитие, средства массовой информации, гражданское, правовое, демократическое, светское общество, политические, экономические, социальные и культурные процессы.*

## **THE ACTIVITY OF THE MEDIA IN THE NEW UZBEKISTAN IS PROTECTED BY THE LAW**

*Abstract: In this article, the priorities of the constitutional development of Uzbekistan at the new stage of improvement of national statehood in the conditions of globalization, human rights and freedoms, national and universal values, man, his life, freedom, establishment of an open and fair society, the field of mass media in the years of independence It is said that the importance of a number of necessary regulatory and perspective-determining legal documents is a mirror of democratic reforms, and the most important tool for encouraging citizens and the general public to think in a new way.*

*Keywords: social society, development, mass media, civil, legal, democratic, secular society, political, economic, social and cultural processes.*

Inson, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat deb tan olgan ko'p millatli O'zbekiston xalqining irodasini ro'yobga chiqarish, davlat

va jamiyat taraqqiyoti mafkurasi, O‘zbekiston xalqining konstitutsiyaviy-huquqiy ijodkorligining o‘ziga xosligini aks ettiruvchi konstitutsiyaviy qadriyatlarni ta’minlashda ommaviy axborot vositalarining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Bizgama’lumki, globollashuv sharoitida milliy davlatchilikni takomillashtirishning yangi bosqichida O‘zbekiston konstitutsiyaviy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Jumladan:

– inson huquq va erkinliklari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqlik;

– demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g‘oyalariga sadoqatni namoyon qilish;

– inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etishga qaratilganlik;

– O‘zbekiston jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo‘shni davlatlar bilan hamkorlik, o‘zaro bir-birini qo‘llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosidagi do‘stona munosabatlarni mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilishi;

– fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko‘p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligi va gullab-yashnashini ta’minlash kabi ustivor vazifalar jahon hamjamiyati tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Konstitutsiyaviy islohot davlat va jamiyat boshqaruvi tizimidagi yondashuvni va faoliyat tamoyillarini tubdan o‘zgartirishga, Yangi O‘zbekistonda o‘zaro munosabatlarning asosi sifatida “davlat-jamiyat-inson” tamoyili o‘rniga “inson-jamiyat-davlat” g‘oyasini asos qilib qo‘yishga qaratilgan.

Shu bois yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, yuz berayotgan jarayonlar shunchalik tez va keng qamrovni tashkil etdiki, bugunga kelib bu qonunlarni yana ko‘p yillarga xizmat qilishi uchun ayrimlarini qayta ishlash, bazilariga esa o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritib kelinmoqda. Xususan, Konstitutsiyaning 67-moddasida “Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi”, deb belgilab qo‘yilgan. Bu esa ommaviy axborot vositalarining mutlaqo qonuniy erkinligining kafolati hisoblanadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning asosiy qismini insonning huquq va erkinliklarini himoya qilishning kafolatlarini kuchaytirish va mexanizmlarini mustahkamlash egallagan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yangi tahrirdagi konstitutsiyada ommaviy axborot vositalari faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘lishi belgilanmoqda. Ushbu norma jurnalistlarning erkin, turli ma‘muriy bosimlardan qo‘rqmasdan faoliyat yuritishini ta‘minlaydi hamda mamlakatimizda axborot erkinligini yanada yuksalishiga, jamiyatda ochiqlik va oshkoralik, qonuniylik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi. Pirovardida, davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlashga, kuchli jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yishga va so‘z erkinligini ta‘minlashga erishiladi. Shuningdek, Konstitutsiyada ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligi, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo‘lgan huquqlari kafolatlangan. Konstitutsiyamizga ilk marotaba fuqarolik jamiyati institutlariga bag‘ishlangan alohida bob kiritilishi va ular faoliyati kafolatlarining belgilanishi jamiyatda ochiqlik, oshkoralik va qonuniylik muhitini, davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlash hamda kuchli jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yish uchun mustahkam zamin hozirlaydi.

Jamiyatda yuzaga keladigan turli muammoli vaziyatlar, insonda hayotida paydo

bo'ladigan qiyinchiliklar, murakkab masalalar, ommaviy axborot vositalariga taqdim etiladigan murojaatlarning o'z yechimini topishi bejiz emas, chunki O'zbekistonda bosqichma-bosqich modernizatsiyalash va liberallashtirish, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida ommaviy axborot vositalarining roli oshirilib, aholini davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati haqida ishonchli axborotlar bilan ta'minlashga keng jalb etish va qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratilyapti.

Ma'lumki, mamlakatimizda OAV fuqarolik jamiyati institutlari tizimida alohida nufuzga ega bo'lib, davlat va jamiyat qurilishi sohasida olib borilayotgan demokratik yangilanishlar va islohotlarning ochiqligi va shaffoqligini ta'minlashda o'ziga xos o'ringa ega.

Bugungi kunda mamlakatimizda 1400 dan ortiq ommaviy axborot vositalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning qariyb 60%i nodavlat OAVni tashkil etadi. Internet tarmog'ida OAV sifatida ro'yxatdan o'tib faoliyat yuritayotgan veb-saytlar so'nggi besh yilda 2 barobar oshib, o'tgan yil yakunida 324 tani tashkil etdi. Bundan tashqari aholining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining axborot manbalari bo'lgan axborot xizmatlari va rasmiy veb-saytlaridan keng foydalanishi imkoniyati yaratilgan. Bu o'z navbatida davlat idoralari faoliyatidan to'liq va xolis xabardor bo'lish bilan birga, davlat boshqaruvi samarasining darajasini belgilashga imkon bermoqda.

Mamlakatimizda so'z erkinligini ta'minlash, axborot va ommaviy kommunikatsiyalar sohasini boshqarish tizimini qayta tashkil qilish, ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy rivojlanishning muammoli masalalarini hal etishda ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, sohadagi hozirgi holat tahlili media makonda yuzaga kelayotgan chaqiriqlarga tezkorlik bilan munosib javob qaytarilmayotganini ko'rsatib, mamlakatda amalga oshirilayotgan ulkan miqyosdagi islohotlar to'g'risidagi keng qamrovli ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish bo'yicha jamiyat ehtiyojlari axborot sohasidagi ishlarni sezilarli darajada oshirishni, davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari, ommaviy axborot vositalarining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda.

Ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada yaxshilash va sifatli tashkil etish, ya'ni:

- maksimal darajada qulay sharoitlar yaratish;
- davlat va jamiyat o'rtasida sifatli muloqotni yo'lga qo'yish;
- aholiga islohotlarning maqsadi, vazifalari va natijalari haqida tezkor, xolis va to'liq axborot yetkazish;
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati shaffoqligini oshirish;
- ularning jamoatchilik bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini va axborot xizmatlari faoliyatining samaradorligini tubdan yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, 2019-yil 1-oktabrdan quyidagilarga alohida e'tibor qaratish belgilab qo'yildi. Jumladan,
- davlat organlari va tashkilotlari faoliyati haqida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlari, shuningdek, boshqa axborot resurslari orqali, shu jumladan, matbuot anjumanlari, brifinglar, mediaturklar tashkil etish yo'li bilan aholiga muntazam, to'liq va tezkor

ravishda axborot taqdim etib borish;

-davlat organlari va tashkilotlarida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy taraqqiyoti jarayoni haqida axborot berish va yoritish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish; davlat organlari va tashkilotlarining ijobiy imijini shakllantirish va ilgari surish, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish va boshqa shakllarda jamoatchilik fikrini o'rganish;

-axborot siyosati sohasida zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi bilan samarali amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish;

-ommaviy axborot vositalari bilan samarali hamkorlik qilish, axborot xizmatlari bilan doimiy ishlovchi jurnalistlar va blogerlar doirasida tezkor ma'lumotlarni tarqatish, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilishda keng aholi qatlamlarining ishtirokini ta'minlash maqsadida ekspertlar guruhini shakllantirish;

-muntazam ravishda ommaviy axborot vositalarida davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining chiqishlarini tashkil etish;

-axborot makoni monitoringini olib borish va tahlil qilish, tanqidiy va keng muhokama qilinayotgan axborot xurujlariga tezkor munosabat bildirish, ommaviy axborot vositalari va Internet tarmog'ida tegishli davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga aloqador axborotni tarqatish bo'yicha ishlarni tashkil qilish;

-davlat organlari va tashkilotlari bilan birgalikda mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari orqali tarqatish uchun xabar, ma'lumot, sharh va boshqa axborot-tahliliy materiallar tayyorlash;

-davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati to'g'risida jamoatchilik fikrini, milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarining pozitsiyasini o'rganish, dolzarb takliflar ishlab chiqish va ular to'g'risida davlat organlari va tashkilotlari rahbariyatiga axborot berib borish;

-davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini xorijiy ommaviy axborot vositalarida sifatli yoritish maqsadida vakolatli vazirliklar va idoralar orqali O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalarini, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning O'zbekistondagi diplomatik vakolatxonalarini axborot materiallari bilan ta'minlash;

-davlat organlari va tashkilotlarining vakolatiga kiruvchi normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari hamda ularning tasdiqlangan matnlarini belgilangan tartibda o'z rasmiy veb-saytlarida joylashtirish; davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatiga aloqador matnli, foto-audio- va videomateriallardan iborat ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yangilab borish kabi vazifalar ijrosining ta'minlanishi qonuniy jihatdan belgilab berildi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni xulosa qilish kerakki, ommaviy axborot vositalari har doim jamiyat taraqqiyotining ko'zgusi, kishilarning ongi, dunyoqarashi, siyosiy saviyasining shakllinishida asosiy vositalardan biri bo'lib kelgan. Bugungi kun yoshlariga ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi o'rnini, ommaviy axborot vositalarining halq orasida nechog'lik muhimligi, qolaversa ijtimoiy-kasbiy ma'suliyat va madaniyat to'g'risida tushunchalar berishda har bir mutaxassis soha bo'yicha yetarli kompetentlikka ega bo'lishi shart. Ayniqsa, mustaqillik yillarida ommaviy axborot sohasini tartibga soluvchi va istiqbolini belgilab beruvchi bir qator yuqorida keltirilgan zarur qonun hujjatlari qabul qilinib, ular xayotimizda keng tatbiq etib kelinmoqda. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari zamon talablariga javob

beradigan demokratik yangilanishlarning ko'zgasiga, fuqarolarning, keng ommaning yangicha fikrlashga undovchi eng muhim vositalardan biriga aylanib bormoqda.

Bundan tashqari, yoshlarning huquqiy savodxonligini yuksaltirish, ularning huquq va burchlarini tushuntirish hamda kundalik turmushda yuzaga kelayotgan muammo, kamchiliklarni hal etishda amaldagi qonunlardan foydalangan holda ish yuritish har bir fuqaroning vatan oldidagi burchi, milliy qadriyatni e'zozlash, yoshlar va ularning porloq kelajagi uchun yurtimizdagi bor imkoniyatlardan oqilona foydalanish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi 2021y
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 26-fevraldagi "Jurnalist kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori. // Demkoratlashtirish va inson huquqlari, 2000 y, № 3-4.
4. O'zbekiston ommaviy axborot vositalari va jurnalistlari. – T.: O'zbekiston Milliy matbuot markazi. 2003 y.  
[https://www.norma.uz/uz/parlament\\_habarlari/ommaviy\\_ahborot\\_vositalari\\_katta\\_kuch\\_va\\_salohiyatga\\_ega](https://www.norma.uz/uz/parlament_habarlari/ommaviy_ahborot_vositalari_katta_kuch_va_salohiyatga_ega)